Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

Nazar Eshonqul hikoyalarining syujet tizimi

Muqaddas Zayniddinovna Oltinova*
Alisher navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va dabiyoti universiteti, Mustaqil izlanuvchi.
✉ muqaddaszayniddinovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Nazar Eshonqul hikoyalarining syujet tizimi kompozitsiya bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqotda syujetning asosiy elementlari – ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechimning badiiy vazifalari yoritiladi. Shuningdek, yozuvchi hikoyalarida xarakterlararo, qahramon va muhit o'rtasidagi hamda ichki psixologik konfliktlarning syujet qurilishidagi o'rni ochib beriladi. "Bepoyon osmon", "Qo'l", "Maymun yetaklagan odam", "Ochilmagan eshik" kabi hikoyalar misolida Nazar Eshonqul ijodida ichki psixologik harakat, ramziy tasvir va falsafiy umumlashtirishlarga asoslangan syujet modeli ustuvor ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar

Nazar Eshonqul, hikoya, syujet, kompozitsiya, konflikt, ichki harakat, ramziylik, psixologizm.

DOI: 10.5281/zenodo.21743086

KIRISH.

Badiiy asar kompozitsiyasini syujetsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki syujet asarda tasvirlangan voqealarning rivojlanish tizimini tashkil etsa, kompozitsiya ana shu voqealarning qanday tartibda va qanday usulda joylashtirilganini belgilaydi. Shu jihatdan kompozitsiya va syujet o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan poetik kategoriyalar hisoblanadi. Syujet badiiy asarning voqealar asosini tashkil etadi. Unda qahramonlarning o'zaro munosabatlari, konfliktlarning rivojlanishi hamda hayotiy hodisalarning badiiy talqini aks etadi. Kompozitsiya esa syujet elementlarini muayyan tartib asosida birlashtirib, asarning yaxlit strukturasini hosil qiladi. Adabiyotshunos Yu. Lotman kompozitsiyani ko'pincha syujet elementlarining sintagmatik tashkil etilishi sifatida ham talqin qiladi. Bu esa voqealarning sabab-oqibat asosida ketma-ket joylashuvi va o'zaro bog'lanishini anglatadi. Syujetning asosiy tarkibiy qismlariga ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kiradi. Ekspozitsiyada asar voqealari boshlanishidan oldingi holat, qahramonlar va muhit haqida dastlabki ma'lumot beriladi. Tugun qismida konflikt yuzaga keladi va voqealar harakati boshlanadi. Voqealar rivoji konfliktning astasekin murakkablashib borishini ifodalasa, kulminatsiya uning eng yuqori nuqtasini tashkil etadi. Yechimda esa konflikt bartaraf etilib, voqealar yakunlanadi. Ana shu qismlarning o'zaro uyg'unligi kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Syujet va kompozitsiya munosabatini tahlil qilar ekan, badiiy asarda voqealarning oddiy ketma-ketligi emas, balki ularning estetik jihatdan tashkil etilishi muhimligini ta'kidlaydi. Chunki muallif voqealarni turli usullarda joylashtirish orqali asarning ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, ayrim asarlarda voqealar xronologik tartibda bayon qilinsa, boshqalarida retrospektiv usul qo'llanib, o'tgan voqealarga murojaat qilinadi. Kompozitsiya syujetning emotsional ta'sirini kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Voqealarning muayyan ritm asosida rivojlanishi kitobxon diqqati va qiziqishini saqlab turadi. Ayniqsa, kulminatsiyaning to'g'ri joylashtirilishi badiiy konfliktning keskinligini oshirib, asarning estetik qiymatini kuchaytiradi. Shuningdek, zamonaviy nasrda an'anaviy syujet qurilishidan chekinish holatlari ham uchraydi. Ayrim asarlarda voqealar izchil ketma-ketlikda emas, balki parcha-parcha tasvirlanadi. Bunday hollarda kompozitsiya muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim vositaga aylanadi. Natijada badiiy matnning ichki strukturasida ramziy ma'no

va psixologik tasvir ustuvorlik kasb etadi.

Demak, kompozitsiya va syujet bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, syujet voqealar tizimini tashkil etsa, kompozitsiya ularning badiiy tartibini belgilaydi.

Syujet asarda tasvirlangan voqealar tizimini tashkil etib, qahramonlar taqdirining rivojlanishi va ularning o‘zaro munosabatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli ham adabiyotshunoslikda syujet badiiy asarning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida talqin etiladi. Syujet voqealarning izchil rivoji, ularning sabab-oqibat bog‘liqligi hamda konflikt asosida tashkil topib, asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu bois, syujet tizimini o‘rganish adabiy matnning ichki tuzilishi, kompozitsion qurilishi va muallif pozitsiyasini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy o‘zbek nasrida, xususan, hikoya janrida syujetning an’anaviy va noan’anaviy shakllari, ramziy va psixologik tasvir vositalari bilan boyitilishi kuzatiladi. Bundan shu anglashiladiki, syujet faqat voqealar ketma-ketligini hikoya qilishi emas, balki asar qaysi yo‘nalishda bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir konsepsiyadagi ma’noni aks ettirishi kerak bo‘ladi. Muallifning estetik qarashlari va ijtimoiy munosabatlarga bergan bahosini ifodalovchi murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hikoyalarning syujet tizimini tahlil qilish ularning badiiy xususiyatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Syujet haqida eng sodda ta’rif M. Gorkiy tomonidan berilgan: “Odamlarning o‘zaro aloqalari, qarama-qarshiliklari, yoqtirish va yoqtirmasliklari, umuman, kishilar o‘rtasidagi munosabatdir – u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o‘sishi, tashkil topib borishidir”. Ta’rifda “u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o‘sishi” deyilyapti. Odatda bu holatni biz, asosan romanlar syujetida ko‘rishimiz mumkin. Hikoya syujeti uchun adabiyotshunos H. Umurovning izohi mos tushadi. Olim syujetning mohiyatini izohlar ekan, uning badiiy asardagi asosiy vazifasini quyidagicha ta’riflaydi: syujet — bu asar qahramonlari hayotida sodir bo‘ladigan voqealar silsilasi bo‘lib, aynan shu voqealar orqali xarakterlar ochiladi va hayotiy ziddiyatlar umumlashtiriladi. Demak, syujet nafaqat voqealar ketma-ketligi, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochishga xizmat qiluvchi badiiy vosita hamdir. Syujet asardagi barcha voqealarni yagona tizimga birlashtiradi va ular orqali muallif g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi. S. personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Adabiyot nazariyasida syujet bu harakatlarga qarab ikki turga bo‘linadi:

1. “Tashqi harakat”ga asoslangan syujet (qahramonlarning xatti-harakatlari, to‘qnashuvlari, kurashi)
2. “Ichki harakat”ga asoslangan syujet (qahramonning o‘y-fikrlari, kechinmalari va ruhiy iztiroblari, taqdiridagi, hayotidagi burilishlar emas, ichki dunyozidagi burilish va kurashlar). Nazar Eshonqul hikoyalarining alohida xususiyatlaridan biri shundaki, “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan syujetga ega hikoyalar yozuvchi ijodining katta qismini tashkil etadi. Bu kabi hikoyalarni syujet elementlari bilan birgalikda tahlil qilishni o‘rinli deb topdik.

Ekspozitsiya – asarda voqealar sodir bo‘ladigan makon, unda ishtirok etuvchi personajlar hamda konfliktning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan sharoit va omillar haqida dastlabki tasavvur beradi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida voqealar 3 yil oldin bo‘lib o‘tgani, qahramonning uy ijara olgani va rassom cholni tanishtirgani bilan boshlansa, “Ochilmagan eshik” hikoyasida kelinchakning eriga nisbatan his qiladiga tuyg’ularini ta’rifi, “Qultoy” hikoyasida Uljonning tayoq yeyishi, uning baquvvatligi, yolg’iz nozik nuqtasi bo‘ri g’ajigan chap tizzasi ekanligini ta’riflash, “Bepoyon osmon ” esa Oyto‘ldining og’it yotganligi haqida kelgan xat hamda uning ta’rifi bilan boshlanadi. Bu qismlar hikoyalarning ekspozitsiyasi vazifasini bajaradi, o‘quvchini ma’lum ma’noda hikoyaga olib kiradi.

Konflikt – syujetni harakatga keltiruvchi asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, asar konfliktining qo‘yiladigan nuqta – tugun. Badiiy asarda syujetning shakllanishida hayotiy ziddiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Chunki har qanday badiiy voqea muayyan qarama-qarshilik yoki konflikt asosida rivojlanadi. Syujet obrazlarning o‘zaro aloqalari va qarama-qarshiliklari orqali hayot ziddiyatlarini umumlashtiradi. Shu sababli ham syujetning harakatlantiruvchi kuchi konflikt hisoblanadi. Konfliktning uchta turini farqlash mumkin:

1. Xarakterlararo konflikt – nomidan ham ma’lumki, bu turda bir yoki bir nechta qahramon o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Jumladan, “Maymun yetaklagan odam”da yigit va rassom chol o‘rtasida fikrlar ziddi,

dunyoqarash jihatdan; “Farishta”da Sancho va kattalar shu bilan birga o‘z nevarasi bilan, “Momoqo‘shiq” (bu asar muallifning 2022-yil nashr etilgan 2 jildlik saylanmasining I jild hikoyalar qismida berilganligi tufayli hikoya janri deya tahlil qilindi. Bu asar 1989-yil qissa deb nashr qilingan bo‘lsa-da, xususiyat jihatlaridan hikoyaga yaqin turadi: H., odatda qahramon hayotidan bitta (ba’zan bir-biriga uzviy bog’liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi.) hikoyasida Muazzam, Otaqulboy va Shamsi Saloh o‘rtasida, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida bayna momo hamda Zamon otboqar, qishloq ahli o‘rtasida, “Bepoyon osmon” hikoyasida Oyto‘ldi va Bibioyna o‘rtasida yuzaga keladi.

2. Qahramon va muhit o‘rtasidagi konflikt asarda personajning ichki dunyosi, qarashlari yoki intilishlarining uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Bunday konflikt orqali qahramonning xarakteri, ruhiy kechinmalari hamda jamiyatdagi muammolarga munosabati ochib beriladi. “Bevaqt chalingan bong” hikoyasida U deya nomlangan qahramon va jamiyat o‘rtasida.

3. Ichki psixologik konflikt qahramonning o‘z qalbi va ongida kechadigan qarama-qarshi his-tuyg‘ular, fikrlar hamda ruhiy kurashlar natijasida yuzaga keladi. Bunday konflikt personajning ichki kechinmalari, iztiroblari va ruhiy holatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, “Sharpa” hikoyasida kurash sharpa bilan boradi. Aslida sharpa inson ichki dunyosining salbiy tomoni deb talqin qilsak, qahramonning ichida ketayotgan kurashning guvohi bo‘lamiz.

Konfliktning uchta turi, odatda, aralash holda kelib, biri ikkinchisi o‘tadi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida ilk konflikt chol va yigit o‘rtasida kuzatsak, aslida eski tuzumga xizmat qilgan insonning hikoya qilinayotgan vaqt insonlari bilan o‘zaro konfliktni insonlarga bo‘lgan munosabati orqali kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga rassom chol ichki ruhiyatida ham o‘tgan tarix va unda yashagan kunlari, qabul qilgan qarorlari hamda asl haqiqat va yolg’onni anglash uchun ham kurash ketayotganini guvohi bo‘lamiz. “Ochilmagan eshik” hikoyasining konflikti esa hikoyada sirli bo‘lib kelgan, kelinchakning tushlarida ko‘rilgan go‘zal ayol bilan borayotgan bo‘lsa-da, asl kurash kelinchakning hislari o‘rtasida avj olayotgan edi.

Nazar Eshonqulning an’anaviy va noan’anaviy uslubda yozilgan ikki hikoyasining syujet tizimini tahliliga e’tibor qaratishni o‘rinli deb bildik. “Bepoyon osmon” hikoyasining ekspozitsiya bilan boshlanganini yuqorida aytib o‘tdik. Hikoyadagi tugun qahramonning amakisi va Oyto‘ldining farzandsizligi bilan bog‘liq muammoning tobora keskinlashib borishi orqali yuzaga keladi. Ayniqsa, ammaning Oyto‘ldini “tug‘mas” deb ayblashi, uni muntazam tahqirlashi va shahardagi mashhur doktorga olib borish haqidagi qarori voqealarning asosiy tugun nuqtasini tashkil qiladi. Chunki aynan shu tashxis masalasi oiladagi ichki ziddiyatlarni ochib beradi.

“Qo‘l” hikoyasida esa syujet tugunning qo‘yilishi bilan boshlanadi. Bu hikoyada voqealar asta-sekin kuchayib borib, ramziy va ijtimoiy ma’noga ega bo‘ladi. Qisqa ekspozitsiya ham tugunning ichiga singdirilib yuboriladi. Hikoya boshida Salom tandirchi ning kambag‘al, mehnatkash, lekin biroz ziqna inson ekani tasvirlanadi. Uning oilasi katta, tirikchiligi og‘ir: tegirmonchilik va tandir yasash bilan kun ko‘radi. Muallif shu orqali qahramonning yashash muhiti va ruhiy holatini ochib beradi: “Salom tegirmonchi qo‘lni hammadan oldin payqadi.” Salom tandirchi oiladagi oziq-ovqat tez tugayotganini sezadi va ovqat paytida dasturxonda “yettinchi qo‘l” – egasi ko‘rinmaydigan begona qo‘l borligini payqaydi. Ana shu sirli qo‘l hikoyadagi asosiy konfliktni boshlab beradi.

Voqealar rivoji – syujet tarkibidagi bosqich bo‘lib, unda konflikt asta-sekin kuchayib, voqealar izchil davom etadi hamda qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar va qarama-qarshiliklar tobora chuqurlashib boradi. “Bepoyon osmon” hikoyasining voqealar rivoji davomida Oyto‘ldining bir umr xo‘rlik va malomatlarga chidab yashagani tasvirlanadi. Ammaning bosimi kuchaygani sari amaki va Oyto‘ldining shaharga borib tekshiruvdan o‘tishi, qaytgach esa uning “ayb menda ekan” deb barcha gunohni o‘z bo‘yniga olishi voqealarni yanada dramatiklashtiradi. Shu bilan birga, amakining ayolini tashlab ketmasligi, unga bo‘lgan muhabbati va sadoqati ham voqealar rivojida muhim o‘rin egallaydi. Hikoya davomida qahramonning bolalik xotiralari, Oyto‘ldi obrazining mehribonligi va fidoiyligi asta-sekin ochib boriladi.

“Qo‘l” hikoyasida voqealar rivoji: begona qo‘l tobora oilaning hayotiga singib ketadi. Uni yo‘qotish uchun: mullalarga murojaat qilinadi, irim-sirimlar qilinadi, mahalla raisi va nozirlarga aytiladi, hattoki maxsus odamlar kelib tekshiradi. Ammo hech qanday chora foyda bermaydi.Qo‘l esa ovqat yeyishda davom etadi.

Shu jarayonda jamiyatdagi: ochko‘zlik, tekinxo‘rlik, mansabparastlik, yolg‘ondinparastlik, byurokratiya kabi illatlar tanqid qilinadi.

Kulminatsiya – syujet rivojidagi eng yuqori nuqta bo‘lib, unda konflikt eng keskin holatga yetadi va voqealarning keyingi yechimiga asos yaratiladi. Shu bosqichda qahramonning taqdiri, ruhiy holati yoki asosiy muammo hal qiluvchi darajada namoyon bo‘ladi. “Bepoyon osmon” asarining kulminatsion nuqtasi – Oyto‘ldi vafotidan keyin qahramon tashxis qog‘ozlarini o‘qib, asl haqiqatni bilib qolgan sahnadir. Ma’lum bo‘lishicha, aslida Oyto‘ldi emas, amakim farzand ko‘ra olmas ekan. Ammo ayol turmush o‘rtog’ining erkaklik sha’ni, obro‘si va g‘ururini saqlash uchun barcha aybni o‘z zimmasiga olgan, butun umr haqorat va malomatlarga chidagan. Bu haqiqat qahramonga ham, o‘quvchiga ham kuchli ruhiy zarba beradi va asarning eng yuqori hissiy cho‘qqisini yuzaga chiqaradi. “Qo‘l” hikoyasida kulminatsion nuqta – davlat odamlari va tekshiruvchilar kelib, katta surishtiruv o‘tkazishi, ammo hech narsa topolmay, aksincha, tandirchining uyini vayron qilib ketishidir. Bu yerda qahramonning umidi butunlay sinadi.

Yechim – syujetning yakunlovchi bosqichi bo‘lib, unda asar davomida yuzaga kelgan konflikt va qarama-qarshiliklar o‘z nihoyasiga yetadi, voqealarning asosiy mazmuni hamda qahramonlar taqdiri oydinlashadi. “Bepoyon osmon” yechim qahramonning haqiqatni to‘liq anglashi va Oyto‘ldining ulug‘ insoniy fazilatlarini tushunib yetishi bilan yakunlanadi. Qahramon onasining sabr-toqati, fidoyiligi va cheksiz muhabbatini chuqur his qiladi. Shu tariqa hikoya insoniylik hamda sadoqat g‘oyalarini ulug‘lash bilan yakun topadi. Oyto‘ldi obrazi esa ma’naviy jihatdan yuksak, o‘z baxtidan kecha olgan fidoyi ayol timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Qo‘l” hikoyasi oxirida Salom tandirchi taqdirga tan beradi. Sirli qo‘l yo‘qolmaydi, aksincha mish-mishlar butun viloyatga tarqaladi. Eng muhim yakun esa - “egasiz qo‘l” endi hammaning uyida paydo bo‘layotgani haqidagi xabar. Hikoyadagi “egasiz qo‘l” obrazi orqali jamiyatdagi ochko‘zlik, tekinxo‘rlik, ma’naviy yemirilish va byurokratik muammolar ramziy shaklda ifodalanadi.

XULOSA

Nazar Eshonqul asarlari yozilish usuli, ifoda yo‘sini, yangicha tasvir, poetik obraz hamda ramzlarning ko‘pligi bilan bir qatorda kompozitsion qurilishining o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Jumladan, matn kompozitsiyasida tavsiflarga alohida ramzlar yuklanganligi, dialoglarning, asosan, bir shaxs o‘rtasida olib borilishi yoki ularda ijtimoiy va umuminsoniy muammolarning tahlil qilinishi bilan, G’arb va Sharq adabiy an’analarini sintezlashtirgan bir-biriga izchil bog’liq bo‘lgan hikoya roviylari bilan ham alohidalik kasb etadi. Yozuvchi personaj yaratayotganda siyosiy tuzumga xizmat qilgan insonlar, undan zarar ko‘rgan, globallashuv jarayoniga yuz tutgan jamiyatning “qurbon”lari taqdiridagi burilishlarni, ichki ruhiyatidagi evrilishlarni tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Nazar Eshonqul hikoyalarida syujet tizimi o‘ziga xos badiiy shaklda namoyon bo‘lib, syujetning tashqi voqeabandlikdan ko‘ra ichki psixologik harakatga, ramziy tasvir va falsafiy umumlashtirishlarga asoslanishi kuzatiladi. Unda ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim qismlari uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Yozuvchi asarlarida konfliktning xarakterlararo, qahramon va muhit o‘rtasidagi hamda ichki psixologik turlari bir-biri bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa hikoyalarning nafaqat voqeaviy, balki ruhiy-psixologik jihatdan ham teranligini ta’minlaydi.

Xususan, “Qo‘l” hikoyasida syujetning tugundan boshlanishi, voqealarning ramziy ma’no asosida tobora keskinlashib borishi hamda yakunda umumijtimoiy mazmun kasb etishi yozuvchining syujet qurish mahoratini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Nazar Eshonqul hikoyalarining syujet tizimi faqat voqealarni bayon qilish vositasi emas, balki inson ruhiyati va jamiyat muammolarini badiiy-falsafiy talqin etuvchi murakkab estetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшонқул Н., Сайланма I (Ҳикоялар). – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – 440 б.
2. Lotman Yuri, The Structure of the Artistic Text, trans. Ronald Vroon (Ann Arbor: University of Michigan Press), 1977 – P. 209.
3. Қўшжонов М. Сайланма: 2 – жилдлик. Ж. 1. Назарий ва проблематик мақолалар, адабий портретлар. Т. : Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 234.

4. Русские писатели о литературном труде. Л., 1956. – С.139.
5. Umurov H.. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – 142 b.
6. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.– Т.: Академнашр, 2013. – Б.289.